

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE FOUNDATION OF ARABIC LEXICOGRAPHY: ISMAIL AL-JAWHARI AND THE WORK “AL-SIHAH”****Mukhlisa Akramova***Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*email: [muxlisa.akramova96@mail.ru](mailto:muxlisa.akramova96@mail.ru)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Ismail al-Jawhari, As-Sihah, Arabic lexicography, rhyme style, authenticity, Vankulu Dictionary, Edward Lane, philology.

**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article examines the "As-Sihah fi al-Lugha" by the great 10th-century philologist Isma'il al-Jawhari, a work that revolutionized Arabic lexicography. The study analyzes the unique "rhyme order" (qafiya) system, the author's principles of "authenticity" in word selection, and the influence of this source on Western Orientalism and Ottoman Turkish culture. Additionally, information regarding rare manuscripts of the work preserved in global libraries is provided.

**ARAB LUG‘ATSHUNOSLIGINING POYDEVORI: ISMOIL AL-JAVHARIY VA “AS-SIHAH” ASARI****Muxlisa Akramova***O‘qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*email: [muxlisa.akramova96@mail.ru](mailto:muxlisa.akramova96@mail.ru)*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Ismoil al-Javhariy, As-Sihah, arab leksikografiyasi, qofiya uslubi, sahahlik, Vankulu lug‘ati, Edvard Leyn, filologiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada X asrning buyuk tilshunos olimi Ismoil al-Javhariyning hayoti va uning arab lug‘atshunoslikdagi inqilobiy yangilik yaratgan. “As-Sihah fi al-lug‘a” asari tadqiq etiladi. Maqolada asarning o‘ziga xos “qofiya” tartibi, muallifning so‘z tanlashdagi “sahahlik” prinsiplari va ushbu manbaning G‘arb sharqshunosligi hamda Usmonli turk madaniyatiga ko‘rsatgan ta‘siri

tahlil qilgan. Shuningdek, asarning dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan nodir qo‘lyozmalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

## ОСНОВОПОЛОЖНИК АРАБСКОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ: ИСМАИЛ АЛЬ-ДЖАУХАРИ И ЕГО ТРУД «АС-СИХАХ»

*Мухлиса Акрамова*

*Преподаватель*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*e-mail: [muxlisa.akramova96@mail.ru](mailto:muxlisa.akramova96@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Исмаил аль-Джаухари, Ас-Сихах, арабская лексикография, метод рифмы, достоверность (сахих), словарь Ванкулу, Эдвард Лейн, филология.

**Аннотация:** В данной статье исследуется жизнь и деятельность великого лингвиста X века Исмаила аль-Джаухари, а также его монументальный труд «Ас-Сихах фи-ль-луга», ставший революционным открытием в арабской лексикографии. В работе анализируются уникальный метод «рифмованного» расположения слов (низам аль-кафия), принципы отбора слов автором на основе их «достоверности» (сахих), а также влияние данного источника на западное востоковедение и культуру Османской империи. Кроме того, в статье представлены сведения о редких рукописях этого произведения, хранящихся в библиотеках мира.

**Kirish.** Arab tilining rivojlanish tarixida lug‘atshunoslik (leksikografiya) asosiy o‘rinda turadi. Islom tamaddunining ilk asrlaridanoq Qur‘oni Karim va hadisi shariflarning ma‘no mohiyatini anglash, she‘riyat tilini tizimlashtirish ehtiyoji mukammal lug‘atlar yaratilishini taqozo etmoqda. Al-Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan fonetik uslub (so‘z tarkibidagi harflarning maxrajiga asoslanish) dastlabki yirik qadamlardan biri bo‘lib, bu tizim o‘quvchi va tadqiqotchi uchun amaliy jihatdan murakkablik tug‘dirardi.

X asr oxirida Ismoil ibn Hammod al-Javhariy (vaf. 393/1003) tomonidan yaratilgan “Taj al-lug‘a va sihah al-arabiya” (arab tilining to‘g‘ri so‘zlari va til toji), qisqacha “As-Sihah” asari lug‘at tuzish metodikasini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Al-Javhariy birinchi bo‘lib arab so‘zlarini ularning o‘zak oxiridagi harfga qarab tartiblash – “qofiya tizimi”ni (nizom al-qofiya) joriy etdi. Ushbu maqola al-Javhariy yangiligining mohiyati, uning manbalari va ilmiy hamjamiyatdagi munozarali jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Ismoil al-Javhariy (to'liq ismi Abu Nasr Ismoil ibn Hammad al-Javhariy (940-1002 yoki 1008)) X asrda yashab ijod qilgan yirik tilshunos olim Forobda dunyoga kelib, vatandoshi Toyisiy Ibrohim Forobiy va boshqa allomalardan tahsil olgan. So'ng , Iroq, Jazira, Misrga borib, uzoq muddat arab tili grammatikasini o'rgangan. Xurosonga qaytib, bir muddat Nishopurda yashagan. U 1002 yil ulkan qanotlar yasab, ularni qo'llariga bog'laganda, uchmoq uchun tomdan sakrab vafot etgan (O'zME, 2000, p. 702). U yoshligida Iroqqa borgan, so'ng Hijozga safar qilib arab tilini o'rganishni boshladi. U zakovat ziyraklik ilmida tengsiz bo'lgan. Bu shaharlarda u arab tili va adabiyotini hamda lug'at ilmini chuqur o'rgangan. Nishopurda uni mohir hattot sifatida ham bilishgan. Al-Javhariy arab tilini mukammal o'rganish maqsadida ko'plab qabilalar orasida yashab, ularning og'zaki nutqini o'rgangan. Bu esa unga sof arab tilini chuqur tushunish imkonini bergan. Ismoil al-Javhariyning ilmiy shakllanishida uning tog'asi, "Devon al-adab" muallifi Ibrohim al-Farobiyning o'rni beqiyos. Al-Farobiy so'zlarni morfologik vaznlar (binolar) bo'yicha tartiblagan edi. Al-Javhariy tog'asining ushbu strukturasi chuqur o'rganib, uni qofiya tizimi bilan sintez qildi. Bu jarayon shunchaki ko'chirish emas, balki metodologik takomillashtirish edi. Shu tariqa uning eng mashhur asari "As-Sihah fi al-lug'a" (arab tilining izohli lug'ati) yaratildi. Bu asar arab tilidagi eng ishonchli va mukammal lug'atlardan biri hisoblanadi. Asarning tuzulishiga to'xtalishimizdan oldin uning qaysi joylarda saqlanishi haqida va qo'lyozmalari haqida ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Ismoil al-Javhariyning "As-Sihah fi al-lug'a" asari nafaqat arab dunyosida, balki butun dunyo bo'ylab yirik kutubxonalar va ilmiy markazlarda saqlanadi. Uning qo'lyozmalari va qadimiy nashrlari Sharq hamda G'arb davlatlarida katta qimmatga ega bo'lib, asarning dunyo bo'ylab tarqalishi va saqlanishi haqida bir qancha ma'lumotlarni uchratamiz. Jumladan, Buyuk Britaniya, Turkiya, Misr, Eron, Kanada va boshqa davlatlarda saqlanishi diqqatga sazovordir.

Buyuk Britaniyada Oksford universitetining Bodleian kutubxonasida asarning 1692-yilda sotib olingan qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda. Turkiyada Usmonli imperiyasi davrida asar juda mashhur bo'lgan. 1729-yilda Istanbulda asarning arabcha-turkcha tarjimai (Vankulu lug'ati) chop etilgan bo'lib, bu Usmonli nashriyot tarixidagi ilk bosma kitoblardan biridir (Mutafarriqa, 1729, C. 1).

Misr va Eronda esa asarning to'liq nashrlari Qohirada (1865-yil) va Tabrizda (1854-yil) chop etilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Kanada va boshqa davlatlar Makgill universiteti kabi xalqaro ta'lim muassasalari kutubxonalarida ham asarning raqamlashtirilgan va jismoniy nusxalari mavjud.

Shuningdek, bu asarni auksionlarda ham ko'rishimiz mumkin. Asarning XII asrga oid nodir qo'lyozmalari (masalan, Iroqda ko'chirilgan nusxalari) Sotheby's kabi jahon darajasidagi auksionlarda katta mablag'ga baholanadi (Arts of the Islamic World & India, 2017)

Bundan tashqari asarni online tarzda ham qidirishimiz mumkin, uning asl qo‘lyozma nusxalari ham quyidagi tarzda maxsus saytlarga joylangan:

Onlayn qo‘lyozmalarni ko‘rish (ID-raqamlari bilan). Ushbu platformalarda qo‘lyozmaning har bir sahifasini yuqori sifatda varaqlash mumkin.

Britaniya kutubxonasi (Qatar Digital Library orqali - ID raqami: OR 3064 va OR 7805) va Fransiya Milliy kutubxonasi (Gallica) ID raqami: Arabe 4278.

Asarning xalqaro ilmiy maqomiga keladigan bo‘lsak, bugungi kundagi nodir qo‘lyozmalar qatoriga kiritilgan.

Asar taxminan 40000 so‘z (lug‘aviy birlik)ni qamrab olgan. Uning o‘ziga xosligi shundaki, Javhariy so‘zlarni yig‘ishda Hijoz va Najd sahrolaridagi badaviy qabilalar orasida bo‘lib, so‘zlarning asl talaffuzini bevosita o‘rgangan.

Bugungi kunda asarning to‘liq qidiruv tizimiga ega elektron versiyalari Baheth.info, Waqfeya va Al-Maktaba al-Shamela kabi global onlayn platformalarda butun dunyo talabalari va olimlari uchun ochiq hisoblanadi.

Bu asarning o‘rni haqida gapiradigan bo‘lsak nihoyatda beqiyos. Sharq va g‘arb olimlarining u haqidagi fikr mulohazalari buning yaqqol dalilidir. Ko‘pgina g‘arbnining sharqshunos olimlari o‘z asarlarida foydalanishgan.

“As-Sihah” asari o‘rta asrlardayoq butun islom olamida asosiy darslikka aylandi.

Turkiyada 1729-yilda Ibrohim Mutafarriqa tomonidan Istanbulda chop etilgan birinchi bosma kitob - “Vankulu lug‘ati” aynan Javhariy asarining tarjimasini edi. Kitob ikki jilddan iborat bo‘lib, u nafaqat lug‘at, balki adabiyot va huquqshunoslik (fiqh) darsligi sifatida ham qo‘llanilgan (Lane, 1863).

Bu voqea Islom Sharqida kitob bosish madaniyatining rasmiy boshlanishi hisoblanadi. Vankulu Mehmed Efendi (XVI asr) Javhariyning arabcha matnini usmonli turkchasiga mahorat bilan tarjima qilgan (Mutafarriqa, I. Vankulu Lug‘ati 1-22 Mukaddime). U asardagi murakkab arabcha istilohlarni turkiy xalqlar tushunadigan tilda bayon etgan. Asarning o‘sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy ahamiyatiga to‘xtalib o‘tsak 3-Sulton Ahmad va Shayxulislomning maxsus ruxsati bilan bosilgan ushbu kitob, o‘sha davr ziyolilari orasida arab tilini o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Yevropada esa XIX asrda ingliz olimi Edvard Leyn o‘zining mashhur “Arabic-English Lexicon” asarini tuzishda Javhariyga tayangan. U Javhariyning arab tilining eng ishonchli “posboni” deb atagan.

Nemis olimi Frans Krenkov (Fritz Krenkow; 1872-1953) - taniqli nemis sharqshunosi, arab tili va adabiyoti bo‘yicha yirik mutaxassis hamda bibliograf bo‘lib, Krenkov qadimgi arab shoirlari devonlarini (to‘plamlarini) nashrga tayyorlash va ularga sharhlar yozish bilan mashhur bo‘lgan. U

qo'lyozmalarni sinchiklab o'rganib, ularning tanqidiy matnini yaratgan. U ayniqsa klassik arab she'riyati va islomiy qo'lyozmalarni tadqiq etishga ulkan hissa qo'shgan. Al-Javhariy asarini chuqur tadqiq etib, uning naqadar original ekanligini isbotlagan. Krenkovga ko'ra, al-Javhariy arab lug'atshunosligini o'rta asrlarning "tartibsiz to'plamlari"dan zamonaviy, tizimli lug'at darajasiga ko'targan shaxsdir.

G'arb olimlari, xususan, mashhur venger sharqshunosi Ignats Goldtsiher, Javhariyning lug'at tuzishdagi yangi uslubini yuqori baholagan.

Goldtsiher fikriga ko'ra U bu tizimni shoirlar va qofiyadosh so'z qidiruvchilar uchun "ajoyib qo'llanma" deb atagan hamda bu uslub keyinchalik barcha yirik arab lug'atlari (masalan, Ibn Manzurning "Lison al-Arab" asari) uchun andoza bo'lganini ta'kidlagan. G'arb tadqiqotchilari asarning nomidagi "Sihoh" (ya'ni "Sog'lom/To'g'ri so'zlar") so'ziga alohida e'tibor berishadi (Encyclopedia of Islam, 1991, pp. 496-497).

Xulosa qilib aytganda, G'arb sharqshunosligi uchun Javhariy - arab tili leksikografiyasini tizimlashtirgan va uni yangi ilmiy bosqichga ko'targan buyuk tilshunosdir.

Asarning tuzulishi va uning xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak,

"As-Sihah fi al-lug'a" asarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. So'zlar ildiz harflar asosida joylashtirilgan;
2. Har bir so'zning ma'nosi aniq va qisqa berilgan;
3. So'zlarning ishlatilishiga misollar keltirilgan;
4. Arab she'riyati va og'zaki nutqdan namunalar mavjud;
5. Bu jihatlar asarni boshqa lug'atlardan ajratib turadi.

Shuningdek, boblar ham o'z navbatida 28 ta fasllarga (birinchi harf bo'yicha) ajratdi. Uning metodologik tizimi esa qofiyadosh so'zlarni bir joyga to'plash (shoirlar uchun qulaylik yaratish) hamda O'quvchi uchun so'z qidirishni soddalashtirish hisoblangan. Faqatgina ishonchli (sahih) so'zlarni kiritish orqali lug'atning ilmiy nufuzini oshirdi.

Mazkur asarning qofiya tizimi tahlili so'zning o'zak (asl) harflariga tayanadi. Bu tizimni tushunish uchun so'zni avvalo qo'shimchalardan xalos etish kerakligini alohida ta'kidlaydi.

Lug'atda so'z qidirish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi

1. So'zning o'zagi aniqlanadi.
2. O'zakning oxirgi harfi bo'yicha bob topiladi.
3. O'zakning birinchi harfi bo'yicha fasl topiladi.

Endi misollar orqali ko'rib chiqsak:

"Nasara" (نصر) so'zi:

Oxirgi harfi - "Ro" (ر). Demak, bu so'z "Ro bobida" joylashgan.

Birinchi harfi - "Nun" (ن). Demak, u "Ro bobining" ichidagi "Nun faslida" keladi.

“Istaxraja” (استخراج) so‘zi:

Avval o‘zak aniqlanadi: “Xo-ro-ja” (خرج).

Oxirgi harf – “Jim” (ج). So‘z “Jim bobidan” qidiriladi.

Birinchi harf – “Xo” (خ). “Jim bobining” ichidagi “Xo faslidan” topiladi.

Bundan tashqari asarda arab tilidagi ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nolari quyidagicha keltirilib o‘tilgan.

Ayn(عين)

Arab tilidagi eng ko‘p ma‘noli so‘zlardan biri bo‘lgan Ayn uchun Javhariy kontekstual tahlilni qo‘llaydi:

Inson a‘zosi: Ko‘z (ko‘rish organi);

Tabiat hodisasi: Buloq (yerning ko‘zi);

Ijtimoiy ma‘no: Josus (jamiyatning ko‘zi);

Moddiy ma‘no: Biror narsaning ayni (o‘zi) yoki tilla/kumush tanga.

Javhariy bu ma‘nolarni shunchaki sanab o‘tmay, ularning har biriga klassik arab she‘riyati yoki hadislardan dalillar keltiradi.

U ushbu so‘zning 15 dan ortiq ma‘nosini keltirib, birinchi navbatda uning eng ko‘p qo‘llaniladigan (sahih) ma‘nosi – “ko‘z” va “buloq” ekanligini ta‘kidlaydi. So‘ngra, she‘riyatdan misol keltirib, uning majoziy ma‘nolarini tushuntiradi. Boshqa lug‘atchilar kabi kam ishlatiladigan dialektlarni aralashtirmaydi.

“Fitna” (فِتْنَةٌ) so‘zi misolida semantik tahlilni ko‘rib chiqamiz

Javhariy ushbu so‘zni tahlil qilganda, uning o‘zak ma‘nosi “imtihon/sinov” ekanligini ta‘kidlaydi. So‘ngra ushbu asosdan kelib chiquvchi boshqa ma‘nolarni tartib bilan keltiradi:

Asosiy ma‘no: Oltinni olovda eritib, uning tozaligini tekshirish (imtihon qilish).

Ko‘chma ma‘nolar: Insonning irodasini sinaydigan qiyinchiliklar, azob-uqubatlar, adashish, hatto farzand va mol-dunyo (chunki bular ham sinov vositasidir) ( Zakaria, Yaacob, 2025, pp. 33-38)

Xulosa: Javhariy bu ma‘nolarning barchasini “imtihon” tushunchasi ostida birlashtiradi

“As-Sihah fi al-lug‘a” asari o‘z davrida va undan keyin ham katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Keyingi lug‘atlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan;
2. Arab tilining me‘yorlarini belgilagan;
3. Tilshunoslik metodologiyasini rivojlantirgan.

**Xulosa.** Ismoil al-Javhariyning “As-Sihah” asari arab lug‘atshunosligida shunchaki yangi kitob emas, balki tilni tizimlashtirishning mukammal metodologik asosi bo‘lib xizmat qildi. U yaratgan “qofiya uslubi” asrlar davomida leksikografik asarlar uchun standart o‘lchovga aylandi.

Al-Javhariyning soʻz tanlashdagi oʻta talabchanligi va faqat “sahih” (ishonchli) birliklarni jamlagani arab tilining klassik qiyofasini saqlab qolishda muhim poydevor boʻldi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, asarning taʼsiri faqat Sharq bilan cheklanib qolmay, Gʻarb sharqshunosligi va Usmonli turk madaniyati rivojiga ham ulkan hissa qoʻshgan. Bugungi kunda dunyoning eng yirik kutubxonalarida saqlanayotgan qoʻlyozmalar va zamonaviy elektron platformalardagi manbalar ushbu asarning ilmiy qiymati hamon yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Ismoil al-Javhariy merosi nafaqat oʻtmish yodgorligi, balki zamonaviy arabshunoslik va filologiya fanlari uchun hamon dolzarb boʻlgan fundamental manbadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild: A – Beshbaliq. Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 702-bet.
2. Mutafarriqa, I. Vankulu Lugati (Terceme-i Sihah-i Cevheri). – Istanbul, 1141 H. (1729). – Cilt 1.
3. Sotheby's: Arts of the Islamic World & India. – London: Sotheby's, 2018–2021. (Katalog ma'lumotlari asosida. Al-Jawhari, Isma'il ibn Hammad. Al-Sihah fi al-Lugha. Twelfth-century manuscript // Sotheby's Auction Catalogue: Arts of the Islamic World. – London, 25 October 2017. – Lot 21.)
4. Lane, E.W. An Arabic-English Lexicon. London, 1863.
5. Mutafarriqa, I. Vankulu Lugati (Terceme-i Sihah-i Cevheri). – Istanbul, 1141 H. (1729). – Cilt 1. – S. 1-22 (Mukaddime).
6. Mutafarriqa, I. Vankulu Lugati. Istanbul, 1729 (Faksimile).
7. Goldtsiher va boshqa Gʻarb sharqshunoslarining "As-Sihah" lugʻatining qofiya tizimi va metodologiyasi haqidagi qarashlari uchun qarang: Encyclopedia of Islam. New Edition. Vol. II. – Leiden: E.J. Brill, 1991. – P. 496-497.
8. Zakaria, N. H., & Yaacob, S. (2025). Morphological and Syntactic Semantics of Lexical Polysemy in the Qur'an using 'Fitna' as a Case Study. Environment-Behaviour Proceedings Journal, 10(SI33), – 33–38. <https://doi.org/10.21834/e-bpj.v10iSI33.7033>